Current Trends in Agrotourism in Uzbekistan: Demand, Needs, and Motives of Agritourists	1030
Iroda Abdieva Gayrat kizi	



Современное состояние достойного труда специалисов транспорта в условиях цифровизации.....	1035
Абдуллаева Нигора Шамсиддиновна	
Обоснование методов оценки совершенствования конкурентоспособности предприятий легкой промышленности	1039
Тухтасинова Мухайё Мирзасултоновна	
Проблемные аспекты трансформации финансовой отчетности бизнеса юридических лиц.....	1045
Шин Инесса Олеговна	
Cross-Cultural Management is a Separate Field of Science and Discipline.....	1051
Umarova Zulaykho, Rakhmanova Zilola	
Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish tahlili.....	1054
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni	1058
Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
Iqtisodiy inqiroz davrida kredit xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy modellari....	1062
Kurbanov Rustam Radjabovich	
Raqamli transformatsiya konsepsiyalari va uning ahamiyati.....	1067
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida	
moliyalashtirishning istiqbollari.....	1074
Xalilova Shoxsanam G'ayrat qizi	
"EIZ" hududida soliq va bojxona rejimlari uchun imtiyozlarni tahlil qilish	1079
Xusanov Durbek Nishonovich, Djurayeva Iroda Bahrom qizi	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari.....	1083
Aliqulov Mehmomalai Salahiddin o'g'li	
Iqtisodiyotni rivojlantirtishda sun'iy texnologiyalarning o'rni	1088
Xonova Nodira Fazliddinovna	
O'zbekistonning investitsiya muhitini jozibadorligini oshirish yo'llari.....	1093
Sotimov Yunusbek Turg'unboy o'g'li	
"Yashil" sanoat siyosatini yuritish zaruriyati: bozor nuqsonlaridan milliy xavfsizlikkacha.....	1198
Muqimov Sherali Axmadali o'g'li	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatining hozirgi holati tahlili va rivojlantirish istiqbollari.....	1103
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
Improving the Methodology of Econometric Analysis of the Efficiency of Financial Activity	
of Agricultural Agroclusters of Uzbekistan.....	1108
Ochilov Ilhom Sayitkulovich	
O'zbekistonda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "Uglerod neytralligiga erishish" strategiyalarining ahamiyati	1116
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich,	
Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li, Bazarov Shodi Abdirahmonovich	
Oziq-ovqat mahsulotlari brend qiymatini oshirishda marketing strategiyalari.....	1123
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан	1129
Рузибоеva Нилуфар Тулкин кизи	
Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat	
vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1135
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion	
marketingning o'rni va mohiyati	1142
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1146
Samandarova Dilfuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari: mavjud muammolar va yechimlar.....	1153
Fatilloyev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning	
iqtisodiy-statistik tahlili.....	1158
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishslash samaradorligini oshirish yo'llari	
("Agrobank" ATB misoldi).....	1167
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1172
Bahriiddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	




O'zbekiston Respublikasi va xorijda tog' turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash	1177
Maqlanov G'olibjon Muxammad o'g'li	
Improving The Effective Use Of Local Taxes And Levies In Tashkent City	1182
Shahzad Zokhidov	
Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога	1186
Муҳиддинов Талат Шайдулло угли	
Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi.....	1189
I. M. Kamoliddinov, To'khtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarни jalb etish xususiyatlari.....	1194
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1199
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzallikkari.....	1203
Ahrorov Farhod Baxriddinovich	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashtirishdan foydalanish.....	1208
Muhitdinov Asror Akobirovich	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari	1213
Djumayev Zayniddin Ahmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari	1219
Tursunov Nozimjon Nosirovich	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
Saida Yuldasheva	
The Contribution of Ecotourism in Developing Gdp in Uzbekistan	1227
Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husanboy Bahromjon o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li	
Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmnинг о'rni	1231
Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna	
O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o'zgarishlar tahlili.....	1237
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1245
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан	1250
Эркинов Шахзод Баходир угли	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budget daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
Ikramov Ravshan Amanbayevich	
Uzum-vinochilik mahsulotlari bozorida eksportni diversifikatsiyalash strategiyalaridan foydalanish	1261
Azadova Bonuposhsha Alisher qizi	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari.....	1266
Sadikov Iskandar Gayratovich	
Milliy soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirishda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	1272
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	



UZUM-VINOCHILIK MAHSULOTLARI BOZORIDA EKSPORTNI DIVERSIFIKATSİYALASH STRATEGİYALARIDAN FOYDALANISH

Azadova Bonuposhsha Alisher qizi

Texnologiya, Menejment va Kommunikatsiya instituti
“Iqtisodiyot, huquq va boshqaruv” kafedrasi o’qituvchisi



Annotatsiya: O’zbekiston uzumchilik-vinochilik mahsulotlari eksportni diversifikatsiya qilish uchun bitta bozor yoki mahsulotga bog’liqlikni kamaytirishga qaratilgan harakatlar zarurdir. Bu yangi bozorlarni kengaytirish, yangi mahsulotlarni yoki ikkalasini ham joriy etishni o’z ichiga oladi. Eksportni diversifikatsiya qilish strategiyasini amalga oshirish uchun esa eksport qilish imkoniyati mavjud bo’lgan bozorlarni tahlil qilinishi lozim. Bozor tahlili potensial eksport bozorlarini aniqlash uchun bozorni chuqur o’rganishni o’z ichiga oladi. Bunda bozor hajmi, o’sish tendensiyalari, raqobat, tartibga solish muhiti va ijtimoiy-madaniy holatlar kabi omillarning ta’siri ham o’rganilishi lozim. Eksportni diversifikatsiya qilish uzoq muddatli strategik tashabbus hisoblanadi. Bunda muayyan maqsadlar, bosqichlar va amalga oshirish muddatlari bilan aniq yo’l xaritasini ishlab chiqish talab etiladi.

Kalit so’zlar: eksport, diversifikasiya, “YO’L XARITASI”, import, segmentlash, pozitsiyalash, brending, raqamli marketing, vertrikal, gorizontal, konsentrik, intensive, ekstensiv.

Abstract: In order to diversify the export of viticultural and winemaking products of Uzbekistan, efforts aimed at reducing dependence on one market or product are necessary. This includes expanding into new markets, introducing new products, or both. In order to implement the export diversification strategy, it is necessary to analyze the markets with export opportunities. Market analysis involves in-depth market research to identify potential export markets. The impact of such factors as market size, growth trends, competition, regulatory environment, and socio-cultural conditions should also be studied. Export diversification is a long-term strategic initiative. This requires the development of a clear road map with specific goals, stages and implementation dates.

Key words: export, diversification, “ROAD MAP”, import, segmentation, positioning, branding, digital marketing, vertical, horizontal, concentric, intensive, extensive.

Аннотация: Для диверсификации экспорта виноградарской и винодельческой продукции Узбекистана необходимы усилия, направленные на снижение зависимости от одного рынка или продукта. Это включает в себя выход на новые рынки, внедрение новых продуктов или и то, и другое. Для реализации стратегии диверсификации экспорта необходимо проанализировать рынки с экспортными возможностями. Анализ рынка включает в себя углубленное исследование рынка для определения потенциальных экспортных рынков. Также следует изучить влияние таких факторов, как размер рынка, тенденции роста, конкуренция, нормативно-правовая среда и социокультурные условия. Диверсификация экспорта является долгосрочной стратегической инициативой. Для этого необходима разработка четкой дорожной карты с конкретными целями, этапами и сроками реализации.

Ключевые слова: экспорт, диверсификация, “ДОРОЖНАЯ КАРТА”, импорт, сегментация, позиционирование, брэндинг, цифровой маркетинг, вертикальный, горизонтальный, концентрический, интенсивный, экстенсивный.

KIRISH

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-avgustdagii “2023–2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to’g’risida” PQ-260-son qarori bilan uzumchilik va vinochilik sohasini barqaror rivojlantirish, qayta ishlash korxonalarini infratuzilmaviy va moliyaviy qo’llab-quvvatlash shuningdek, uzum va vinochilik mahsulotlari eksporti hajmlarini oshirish bo’yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun 2023–2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sanoatini kompleks rivojlantirish bo’yicha “YO’L XARITASI” tasdiqlangan bo’lib, mazkur yo’l xaritasida “VINE Uzbekistan” brend marketing strategiyalarini amalga oshirish uchun bar qator vazifalar belgilab berilgan, jumladan:



- uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish uchun potensial tashqi bozorlarda chuqr marketing tadqiqotlarini o'tkazish;
- Qozog'iston, Xitoy va boshqa mamlakatlarda milliy vino savdo uylarini ochish;
- Xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda soha korxonalari ishtirokini ta'minlash;
- Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Janubiy Koreya Respublikasi va boshqa importyor davlatlar bilan muzokalararni olib borish;
- Eksport qilinadigan uzum va vinochilik mahsulotlarining bojxona rasmiylashtiruvি jarayonlarining qulay va tezlashtirilgan tartibini joriy etish.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun korxonalarga eksportni rivojlantirishga qaratilgan uslubiy asoslarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

"2013–2022-yillarda Peruning yangi uzum eksportida bozor diversifikatsiyasini tahlil qilishga, uning xalqaro savdoga ta'sirini o'rghanishga qaratilgan. Milliy bojxona va soliq ma'muriyatining veb-saytida ochiq qayd etilgan ma'lumotlarni tahlil qilish bilan bir qatorda miqdoriy metodologiya qo'llanildi, xususan, uzum uchun milliy kichik sarlavha bo'yicha jo'natuvchi kompaniyalar eksporti. Diversifikatsiya Herfindal-Hirshman konsentratsiyasi indeksi (HHI) va raqobatbardoshlik Balassa indeksi yordamida tahlil qilindi".^[1]

Alshammari, S. D.^[2], Vergamini, D., va boshqa^[3], Droli, M., va boshqa^[4], Morgan, G., va boshqa^[5], Markova, V. D., va boshqa^[6], Bousquet, J.^[7], Pradeep, R. K., va boshqa^[8], Fait, M., va boshqa^[9] va boshqa kabi xorijiy olimlar vino sohasiga oid turli xil marketing strategiyalari bo'yicha maqolalar chop etilgan. Shu qatorda mahalliy iqtisodchi olimlardan D.M.Usmonova "Uzumchilik korxonalarining eksport salohiyatini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish"^[10] nomli monografiyasida eksportni rivojlantirtish strategiyalari haqida bir qator ma'lumotlar berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Eksportni diversifikatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda bir qancha tahlil vositalari dan foydalanish mumkin. Jumladan, SWOT tahlili, konyunktura tahlili, Portering beshta kuch tahlili, PESTEL tahlil, raqobat tahlili va boshqalar. Ushbu tahlil vositalaridan samarali foydalanish orqali korxonalar eksport qilish imkoniyati mavjud bo'lgan mamlakatlarni, umuman olganda bozorlarni aniqlash imkoniyati yuza keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Eksport geografiyasini kengaytirish uchun mos bo'lgan mamlakatlarni aniqlash uchun guruhash maqsadga muvofiq. Bunda, O'zbekiston eksport uchun mos mamlakatlar guruhlarini aniqlab olish imkoniyati mavjud. Mazkur tahlilni amalga oshirish uchun quyidagi ma'lumotlardan foydalanish talab etiladi:

X1 – vinochilik mahsulotlari import qiluvchi mamlakatlarning jahon importidagi ulushi, %. Maksimal qiymatlar bo'yicha tanlanadi;

X2 – ma'lum davr mobaynida (2018-2022-yillarda) vino mahsulotlari import qiluvchi mamlakatlarda import o'sishi, %. Maksimal qiymatlar bo'yicha tanlanadi;

X3 – vinochilik mahsulotlari import qiluvchi davlatlar va ularning barcha yetkazib beruvchi bozorlari orasidagi o'rtacha masofa (km); minimal qiymatlar bo'yicha tanlanadi;

X4 – hamkor mamlakatlarning barcha yetkazib beruvchi mamlakatlari konsentratsiyasi. Minimal qiymatlar bo'yicha tanlanadi;

Konsentratsiya Herfindal indeksiga asoslanadi. Herfindal indeksi quyidagi formula asosida hisoblanadi

$$H = \sum_{i=1}^n s_i^2 (1)$$

Bunda,

H – Herfindal indeksi;

s – mamlakatning bozordagi ulushi;

n – mamlakatlar soni

$H_k < 0,01$ (yoki foizlar butun son sifatida ishlatsa 100) yuqori ichki raqobatbardosh konsentratsiyani ko'rsatadi, bozorga kirish qulay.

$H_k < 0,15$ (yoki 1500) konsentratsiyalanmagan holatni ifodalaydi, bozor raqobatbardoshdir, bozorga kirishda to'siqlar mavjud.



0,15 dan 0,25 gacha bo'lsa (yoki 1500 dan 2500 gacha) o'rtacha konsentratsiyani ko'rsatadi. Bozorga kirish xavotirli;

$H_k > 0,25$ (yoki 2500) yuqori konsentratsiyani ko'rsatadi. Bozorga kirish imkonsiz, chunki yuqori monopol mavqedagi korxonalar mayjud;

Tanlab olingen mezonlar bo'yicha Jahon savdo tashkilotining tashqi savdo statistikasi ma'lumotlarida keltilib o'tilgan mezonlar bo'yicha statistika yig'ib boriladi. Shunga muvofiq vino bozorida O'zbekiston uchun mos keluvchi mamlakatlardan guruhi aniqlash uchun 1-ilovada keltirilgan ma'lumotlar shakllantirish.

X5 – vinochilik mahsulotlari import qiluvchi davlatlarda O'zbekiston duch keladigan o'rtacha import ta'riflari. Minimal qiymatlar bo'yicha tanlanadi;

Mamlakatlarni guruhashda asosiy mezonlar sifatida 2022-yilda O'zbekistondan vino mahsulotlari import qilish ko'rsatkichlari bo'yicha eng yuqori bo'lgan mamlakatlarning tanlangan indikotorlar bo'yicha minimal va maksimal qiymatlari mos keluvchanlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

O'zbekistondan import qiluvchi mamlakatlardan, jumladan, Qozog'iston (43,93 foiz), Rossiya Federatsiyasi (41,13 foiz), Qirg'iz Respublikasi (7,85), Belarusiya (2,68 foiz) hamda Gruziya (1,35 foiz)ning Xn mezonlar bo'yicha maksimal, minimal va o'rtacha qiymatlari 1-jadvalda aks etgan.

1-jadval: O'zbekistondan import qiluvchi mamlakatlarning^[11]

Mamlakatlardan	Importning ulushi, %	Importning osishi, %	O'rtacha masofa (km)	Konsentratsiya	O'rtacha import tariflari
	X1	X2	X3	X4	X5
Qozog'iston	0,4	20	2,644	0,29	0,00
Rossiya Federatsiyasi	1,5	2	2,241	0,1	0,00
Qirg'iz Respublikasi	0,07	16	1,892	0,35	1,40
Belarus	0,1	-3	1,193	0,12	0,00
Gruziya	0,04	8	2,44	0,08	0,00
minimal qiymat	0,04	-3	1,193	0,08	0
maksimal qiymat	1,5	20	2,644	0,35	1,4

Guruhash tanlangan mamlakatlardan bo'yicha minimal va maksimal qiymatlarga mos kelishi nuqtai nazaridan barcha mamlakatlardan guruhanlandi:

X1 va X2 o'zgaruvchilar bo'yicha:

"A" - minimal qiymatgacha bo'lgan mamlakatlardan;

"B" - minimal va maksimal qiymatgacha bo'lgan mamlakatlardan;

"S" – maksimal qiymatdan yuqori bo'lgan mamlakatlardan

X3, X4 va X5 o'zgaruvchilar bo'yicha:

"A" – maksimal qiymatdan yuqori bo'lgan mamlakatlardan;

"B" - minimal va maksimal qiymatgacha bo'lgan mamlakatlardan;

"S" – minimal qiymatgacha bo'lgan mamlakatlardan;

Ushbu guruhash bo'yicha O'zbekiston uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan mamlakatlardan har bir mezon bo'yicha "B" guruha mos keluvchi mamlakatlardan hisoblanadi. Binobarin 5 ta ko'rsatgich asosida olingen guruhash natijalariga ko'ra (asosiy natijalar 1-ilovada) 3.1.5-jadval ma'lumotlari shakllantirilgan. Mazkur jadval ma'lumotlari ko'ra jami 35 mamlakat O'zbekistonning vino mahsulotlari eksporti uchun eng qulay mamlakatlardan guruhashda asosiy natijalariga bo'yicha 3.1.5-jadval ma'lumotlari shakllantirilgan. Mazkur mamlakatlarning belgilab olingen Xn mezonlarning barchasiga mos keluvchi mamlakatlardir. O'zbekistoning eksport faoliyatini diversifikatsiyalash bo'yicha tavsiya etilgan mamlakatlardan guruhashda asosiy natijalariga 5B, 4B, 3B, 2B, 1B mamlakatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Qolgan 3 foizlik ulush esa 4B, 3B, 2B, 1B mamlakatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2-jadval: O'zbekistonning vino mahsulotlari eksport imkoniyatlari mavjud bo'lgan mamlakatlardan soni^[12]

Guruhar	Soni	Ulushi, foizda	Ushbu guruhashda mahsulot eksporti, ming AQSH dollarri	Ulushi, foizda
5B	35	15,8	43205	97,51
4B	73	32,9	267	0,60
3B	84	37,8	355	0,80
2B	19	8,6	400	0,90
1B	11	5,0	81	0,18



O'zbekistonda vinochilik mahsulotlari eksportini diversifikasiyalash uchun tavsiya etilgan "5B" guruh mamlakatlarida yuqori ekstensiv o'sishga erishish imkoniyatlarini oshiradi.

Mamlakat uchun mahsulotni diversifikasiya strategiyasini ishlab chiqish uchun vino mahsulotlari turlarini nisbiy raqobat ustunliklarini aniqlash talab etiladi. Mahsulot bo'yicha diversifikasiya esa tarmoqni intensiv o'sishiga olib keladi. Buning uchun O'zbekiston vinochilik mahsulotlari tovarlari assortimentining ayrim guruhlari uchun nisbiy ustunliklarni aniqlash talab etiladi. Mahsulot turlari bo'yicha nisbiy ustunlikni aniqlashda Balassa indeks (BI) dan foydalanish eng maqsadga muvofiq usuldir. Balassa indeks (BI) quyidagicha aniqlanadi:

$$BI = (X/X_a)/(X_{wi}/X_{wa}) \quad (2)$$

bu yerda:

X – tanlangan mahsulot turi bo'yicha O'zbekistonning eksport hajmi;

X_a – tanlangan mahsulot turi bo'yicha jahonga eksport hajmi;

X_{wi} – O'zbekistonning jami mahsulot eksporti hajmi;

X_{wa} – Jahon eksporti.

Qiyoziyah tahlil uchun 2018–2022-yillardagi vinochilik mahsulotlari TIF TN turlari bo'yicha eksport bozoridagi umumiylaridan foydalanish tavsiya etiladi. Jahon savdo tashkilotining rasmiy statistikasi (<https://www.trademap.org/>) ma'lumotlari orqali qiyoziyah ustunlik TIF TN kodi (2200) bo'yicha aniqlash maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlilarni inobatga olgan holda intensiv diversifikasiya asosida O'zbekistondan vino mahsulotlari eksportini oshirish uchun quyidagilarga ahamiyat qaratish lozim:

1. Aniqlangan tovar kategoriyalari uchun O'zbekistonning raqobatda nisbiy ustunligini inobatga olgan holda bozor doirasini kengaytirish lozim. Bu har qanday yagona bozorga qaramlikni kamaytirishi va xavflarni kamaytirishi mumkin.
2. Aniqlangan tovar kategoriyalari uchun xalqaro bozorda yuqori narxlarga ega bo'lishi mumkin bo'lgan yuqori sifatli vino mahsulotlarini ishlab chiqish va targ'ib qilish.
3. Sifatni yaxshilash va jahon bozorida ajralib turadigan noyob mahsulotlarni yaratish uchun vino ishlab chiqarishning innovatsion usullarini qo'llang.
4. Korxonalar uchun vino mahsulotlarining qabul qilingan qiymatini oshirish uchun yuqori sifatli qadoqlash va brendingga sarmoya kiritishga ahamiyat qaratilishi lozim.
5. Yuqoridagi boblarda mijozlar xulq-atvorini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida xorijiy bozorlarda doimiy marketing tadqiqotlarini olib borish talab etiladi.
6. Aniqlangan mahsulot turlari bo'yicha bozorga yaxshiroq kirib borishni ta'minlash uchun maqsadli bozorlarda distribuyutorlar va chakana sotuvchilar bilan mustahkam aloqalarni o'rnatilishi lozim.
7. Barqaror uzumchilik va vinochilik amaliyotlarini joriy etish orqali global auditoriya qamrovini oshirish muhim ahamiyat kasb etishi lozim. Bu barcha mamlakatlar iste'molchilari uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.
8. O'zbekiston vino mahsulotlarini targ'ib qilish maqsadida xalqaro vino yarmarkalarida, ko'rgazmalarda va degustatsiya tadbirlarida ishtiroy etishi muhim marketing tadbirlari sifatida qaralishi lozim.

Ushbu strategiyalarni amalga oshirish orqali O'zbekiston vino ishlab chiqaruvchilari global sharoit va iste'mol tendensiyalariga moslashgan holda eksport bozorlarida yanada intensiv va diversifikasiyalangan o'sishni maqsad qilishlari mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Market Diversification and Competitiveness of Fresh Grape Exports in Peru. Jose Carlos Montes Ninaquispe., Kelly Cristina Vasquez Huatay., Diego Alejandro Ludeña Jugo. 19 March 2024. <https://doi.org/10.3390/su16062528>
2. Alshammari, S. D. (2018). An International Marketing Strategy and Export Performance among Malaysian Exporters. an International Marketing Strategy and Export Performance Among Malaysian Exporters.
3. Vergamini, D., Bartolini, F., Prosperi, P., & Brunori, G. (2019). Explaining regional dynamics of marketing strategies: The experience of the Tuscan wine producers. Journal of Rural Studies, 72, 136–152. <https://doi.org/10.1016/j.jrurstud.2019.10.006>.
4. Droli, M., Sarnari, T., & Bašan, L. (2019). Defining evidence-based marketing strategies for wine producers and wine tourist destinations. Zbornik Veleučilišta u Rijeci, 7(1), 239–255. <https://doi.org/10.31784/zvr.7.1.26>.



5. Morgan, G., & Tresidder, R. (2021). Marketing of the wine experience. In Contemporary Wine Studies (pp. 180–197). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315768274-17>.
6. Markova, V. D., Tzinlin, M., & Ge, C. (2022). Marketing strategies of smartphones producers. World of Economics and Management, 17(4), 158–167.
7. Bousquet, J. (2023). Marketing Challenges and Trends Influencing Wine Producers and Consumers. Journal of Business and Management Studies, 5(3), 155–160. <https://doi.org/10.32996/jbms.2023.5.3.16>.
8. Pradeep, R. K., Chandu, V., Ryali, N., Gangula, A., Mishra, D., & Mishra, S. (2023). Ethical business marketing: The practices to compete successfully in business. In Data-Driven Approaches for Effective Managerial Decision Making (pp. 259–276). IGI Global. <https://doi.org/10.4018/978-1-6684-7568-3.ch013>.
9. Fait, M., Iazzi, A., Trio, O., & Iaia, L. (2013). Social web communication and CRM in the marketing strategies of wine enterprises. Journal of Economic Behavior, 3, 103–116.
10. D.M.Uzmonova. Uzumchilik korxonalarining eksport salohiyatini oshirushda marketing strategiyalaridan foydalanish. (Monografiya). - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2023-180 b.
11. O'zbekistondan import qiluvchi mamlakatlarning. Muallif tomonidan statistik ma'lumotlar yig'indisi.
12. Muallif hisob kitoblar natijasi.

Yashi

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

